Sport kurashining asosiy tushunchalari va atamalari. Tushunchalar va atamashunoslikda har qanday fanni o'rganish va o'qitish predmeti ochib beriladi, fanda to'planayotgan bilimlar jamlanadi. Agar tushuncha to'liq ta'rifga ega bo'lsa, ya'ni uni tuzish hamda ishlatish farqlari va usullari mezonlarining qisqa ifodasi berilsa, bunday tushuncha to'liq hisoblanadi. Sport kurashida foydalaniladigan quyidagi asosiy tushunchalar va atamalarni ta'riflashda shu narsaga e'tibor qaratish lozimki, ilmiy-usuliy adabiyotlar hamda amaliyotda ularning yagona ta'rifi yo'q.

Kurashchilar tayyorgarligi tizimi - yaxlit birlikni tashkil qiluvchi va maqsadga erishishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq bo'lgan elementlar yig'indisidir, ya'ni bu jahonning kuchli kurashchilarining model tavsiflariga javob bera oladigan va eng yuqori natijalarni ko'rsatishga qodir sportchilarni tayyorlashga qaratilgan tadbirlar kompleksidir.

Kurashchining mashg'uloti - bu tayyorgarlik tizimining tarkibiy qismidir, yuqori sport natijalariga erishishga qaratilgan tizimlashtirilgan vositalar hamda uslublar yordamida sportchi rivojlanishini boshqarishning pedagogik jihatdan tashkil etilgan jarayonidir.

Mashg'ulot faoliyati - trenirovka maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish bo'yicha trenerlar jamoasi hamda kurashchilarning birgalikdagi faoliyatidir.

Sport musobaqalari - kurashchi tayyorgarligi tizimining tarkibiy qismidir. Ular trenirovka maqsadlari hamda uning samaradorligi mezoni bo'lib xizmat qiladi, boshqa tomondan esa, ular maxsus musobaqa tayyorgarligining samarali vositasi hisoblanadi.

Sportchining texnik tayyorgarligi - kurashchining musobaqa faoliyatida yuqori ishonchliligini ta'minlaydigan harakat malakalarini egallashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Sportchining taktik tayyorgarligi - musobaqa faoliyatida texnik harakatlarni oqilona qo'llash malakasini egallashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Kurashchining jismoniy tayyorgarligi - jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish va funksional imkoniyatlarni oshirish, texnik-taktik harakatlarning samarali egallanishini ta'minlaydigan hamda musobaqa faoliyatida yuqori darajadagi ishonchlilikka yordam beradigan tayanch-harakat apparatini mustahkamlashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Kurashchining ruhiy tayyorgarligi - ma'naviy, iroda va sport kurashining o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'lgan hamda musobaqa faoliyatida yuqori

darajadagi ishonchlilikni ta'minlashga qodir ruhiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Kurashchining nazariy tayyorgarligi - sportchini trenirovka va musobaqa faoliyati samaradorligini oshiradigan maxsus bilimlar bilan qurollantirish.

Kurashchining integral tayyorgarligi - samarali musobaqa faoliyatini ta'minlash maqsadida texnik, taktik, ruhiy, nazariy va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha trenirovka ta'sirlarining integrasiyalashuviga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Mashg'ulot yuklama - mashg'ulotlar jarayonida kurashchiga trenirovka orqali ta'sir ko'rsatishning son ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi trenirovkaning tarkibiy qismidir.

Musobaqa yuklama - musobaqa faoliyati hajmi va shiddatining son miqdoridir.

Kurashchining asosiy holatlari. Kurashchining asosiy holatlari - sport tayyorgarligi jarayonida kurashchilar tomonidan qo'llaniladigan holatlardir.

Tik turish - kurash olib borish uchun zarur bo'lgan, kurashchining tik oyoqlarda turgan holatidir. O'ng, chap tomonlama, yalpi, past va baland tik turish ajratiladi. Ular yaqin, o'rta va uzoq masofalardan turib qo'llaniladi.

O'ng tomonlama tik turish - kurashchining (raqibga nisbatan) o'ng oyog'ini oldinga chiqarib turgan holatidir.

Chap tomonlama tik turish - kurashchining chap oyog'ini oldinga chiqarib turgan holatidir.

Yalpi tik turish - kurashchining tik turishdagi holati bo'lib, bunda uning oyoq kaftlari gavdasining yalpi tekisligida turadi.

Baland tik turish - tik turishda butun bo'yi bilan yoki bir oz egilgan holda turgan kurashchining holatidir.

Past tik turish - kurashchining tos-son bo'g'imlarida bukilib (oyoqlarni tizzalardan bukkan holda) tik turishdagi holatidir.

Parter - kurashchining qo'llari bilan gilamga tiralib, tizzalarda turgan holatidir.

Parterda pastdagi va yuqoridagi kurashchi holatlari ajratiladi.

Ko'prik - shunday holatki, bunda kurashchi, egilib, peshonasi hamda yelka kengligida yozilgan oyoq kaftlari bilan gilamga tiraladi.

Kurashchining texnik harakatlari. Kurash texnikasi - kurashchining g'alabaga erishish uchun qo'llaniladigan, qoidalarda ruxsat berilgan harakatlari yig'indisidir.

Usul - kurashchining g'alabaga yoki raqib ustidan ustunlikka erishish uchun hujum qilinayotgan kurashchi holatini gilamga nisbatan o'zgartirishga qaratilgan harakatidir.

Himoyalanish - kurashchining hujum qiluvchi tomonidan amalga oshirilayotgan usulni to'xtatib qolishga qaratilgan harakatidir.

Qarshi usul - kurashchining raqib usuliga qarshi javob usulini bajarishga qaratilgan harakatidir.

Tashlashlar. Oldinga engashib - usul bo'lib, uning natijasida raqibni gilamdan ko'tarib, vertikal holatdan gorizontal holatga o'tkazadi.

Yelkadan oshirib (burilib) - usul bo'lib, bunda kurashchi raqibni qo'llari, qo'l va oyog'i, boshi va oyog'i, kiyimidan ushlab olib, tutib turgan yelkalardan oshirib gilamga tashlaydi.

Kurashchining taktik harakatlari. Sport kurashi taktikasi - bu bellashuvlar va musobaqalarda yuzaga kelgan muayyan vaziyatlarda raqib xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik iroda va jismoniy imkoniyatlardan mohirona foydalanishdir.

Hujum uchun tayyorgarlik harakatlari - bu hujum harakatini bajarish uchun zarur bo'lgan raqibning kutilayotgan va himoyalanih harakatini keltirib chiqarish maqsadida bajariladigan kurashchining hujum harakatlaridir.

Taktik tayyorgarlik usullari - kurashchi harakatlari bo'lib, ular yordamida u hujum yoki qarshi xujum uchun qulay sharoitlarni yaratadi.

Razvedka - kurashchining raqib to'g'risida ma'lumot olishga qaratilgan taktik harakatlaridir.

Niyatni yashirish - kurashchining taktik harakati bo'lib, uning yordamida u raqibdan o'zining asl niyatlarini yashiradi.

Xafv solish - kurashchining raqibni himoyalanihga o'tishga majbur qiluvchi taktik harakatidir.

Aldamchi harakat (aldash) - hujum qiluvchi tomonidan oxiriga yetkazilmaydigan va raqibni himoyalanihga majbur qiladigan usullar, qarshi usullar, ushlab olishlar, siltashlar, turtishlar va boshqa harakatlar.

Qo'shaloq aldash - kurashchining taktik harakati bo'lib, haqiqiy usulni raqibga aldamchi usul sifatida ko'rsatadi.

Chorlash - kurashchining taktik harakati bo'lib, shu orqali u raqibni faol harakatlarga o'tishga majbur qiladi.

Teskari chorlash - kurashchining taktik harakati uning faol harakatlarni to'xtatib, raqibni ham shunday harakatlarga chorlash maqsadida amalga oshiradigan harakati.

Cheklab qo'yish - kurashchining raqib harakatlari erkinligini cheklab qo'yadigan taktik harakatlari.

Takroriy hujum - bir xil harakatlarni ketma-ket bajarishdan iborat bo'lgan taktik harakat. Ushbu ketma-ket uyushtirilgan harakatlar ichida faqat oxirgisi hal etuvchi, qolganlari esa aldamchi harakat hisoblanadi.

Muvozanatdan chiqarish - kurashchining taktik harakati bo'lib, u raqibni nomustahkam holatni egallashga majbur qilish bilan birga kurashchiga hujumni bajarish uchun qulay vaziyatni yaratadi.

Usullar kombinasiyalari - usullar uyg'unligi bo'lib, bunda boshlang'ich usullar keyingilarini bajarish uchun qulay dinamik vaziyat yaratadi.

Yuqorida sanab o'tilgan tushunchalar va atamalar sport kurashi nazariyasi hamda usuliyatida keng qo'llaniladi. Taklif etilayotgan atamalar o'zgarmas va qat'iy emas. U keyinchalik, shubhasiz, sport fanining rivojlanishi hamda yangi talablariga muvofiq qisman o'zgartirib turilishi mumkin

Mustaxkamlash uchun savoliar

- 1.Sport texnikasini tasniflash, tizimlashtirish va uning atamashunosligi mazmuni nimadan iborat?
- 2.“Tasniflash”, “tizimlashtirish” va “atamashunoslik” tushunchalarini ta’riflab bering.
- 3.Usullarning yagona tasnifini yaratish uchun zarur bo’lgan har xil kurash turlaridagi umumiy qonuniyatlarni sanab o’ting.
- 4.Kurash texnikasi yagona tasnifining asosiy vazifalarini aytib bering.
- 5.Kurash texnikasi yagona tasnifining to’rtta darajasini tushuntirib bering.
- 6.Kurash usullarini ta’riflash uchun nimani bilish lozim?
- 7.Kurash usullarining to’liq nomlarini ta’riflashning asosiy qoidalarini sanab o’ting.

Topshiriq

- 1.Sport texnikasini tasniflashni o’rganish
2. Sport texnikasini tizimlashtirish o’rganish
3. “Tasniflash”, “tizimlashtirish” va “atamashunoslik” tushunchalarini izoxlash
- 4.Usullarning yagona tasnifini yaratish uchun zarur bo’lgan har xil kurash turlaridagi umumiy qonuniyatlarni o’rganish

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar.

- 1.F.A.Kerimov. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. Toshkent 2005.
- 2.N.X.Azizov. Belbog’li turkiston kurashi. Toshkent: O’qituvchi 1998.
- 3.A.Atoyev. Yosh o’smirlar o’zbek kurashini o’rgatish uslubiyati. Toshkent «O’qituvchi» 2005.
- 4.K.Yusupov. Kurash halqaro qoidalari texnikasi va taktikasi. Toshkent 2005.
- 5.R.S. Salomov. “Sport mashg’ulotlarining nazariy asoslari” O’zbekiston Davlat jismoniy madaniyat instituti Toshkent 2005 yil.238-bet
- 6.Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O’zbekiston Davlat jismoniy madaniyat instituti 2005 yil - 171 b.
- 7.Uchebnoye posobiye pod.red. A.N.Borodiyev, I.B.Goldshteyn, N.B.Samoylov. Russkiy rukopashnyy boy. Moskva 2001
- 8.Praktika rukopashnogo boya. Uchebnoye posobiya pod/red. K.Borisov 2003 g.
- 9.Djiu djisu S.Ivanov – Katanskiy. Moskva 1996 g.
- 10.Karate – do Donesk S.A.Lapshin. Moskva 1991 g.
- 11.Posobiye po zashite i obezorujivaniyu pri udarax nojom. Ilxamov I.R. Toshkent 1998
- 12.Metodicheskoye rukovodstvo dlya purvogo goda obucheniya. 1998 g.
- 13.Nastavleniye po fizicheskoy podgotovke Voorujyonnyx Sil Ruspubliki Uzbekistana. Toshz Kent 1999.
- 14.A.Abdusattorov, A.A.Istomin Dzyudo kurashi Toshkent 1993.

Milliy kurash, qo'l jangi sportida musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish hamda hakamlik qoidalar

Reja:

1. Musobaqa nizomi va turlari.
2. Hakamlar hay'ati.
3. Hakamlarni formasi va kurash formasi (kiyimi).
4. Kurashchilar gigiyenasi.
5. Kurash gilami va kurash musobaqalari o'tkazilayotganda kerak bo'ladigan asbob-uskunalar,
6. Kurashchilarning yosh va vazn toifalari.
7. Kurash musobaqalarida ishlatiladigan iboralar.

I. Musobaqa nizomi

a) Musobaqaning Nizomi musobaqani tashkil qiladigan tashkilot tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi;

b) Musobaqa Nizomida qo'yidagilar qayd etilishi lozim:

1. Musobaqa turi.
2. Musobaqaning maqsad va vazifalari,
3. Qatnashuvchi tashkilotlar va jamoalar, qatnashuvchilar (sport tasnifi, yoshi, jinsi, qaysi jamoadan ekanligi).
4. Musobaqa o'tkazish joyi va vaqti.
5. Musobaqaning ochilish marosimi.
6. Musobaqa o'tkazish tartibi.
7. Musobaqada ishtirok etish shart-sharoitlari.
8. Musobaqani o'tkazishga mas'ul tashkilot.
9. Hakamlar hay'ati.
10. Olishuv vaqti.
11. Tanalfus vaqti - 20 daqiqa.
12. Musobaqada ishtirok etish uchun arizalar berish muddati.
13. Tibbiy nazorat va tozalikni ta'minlash tartibi.
14. Mandat komissiyasiga tavsiya etiladigan hujjatlar.
15. Norozilik bildirish va ularni ko'rib chiqish tartibi.
16. Musobaqa o'tkaziladigan sana va liar bir vazn toifasida bellashuvlar boshlanish vaqti
17. Musobaqa g'oliblarini va sovrindorlarni mukofotlash tartibi.
18. Musobaqaning yopilish marosimi.

II. Musobaqa turlari.

1. Shaxsiy birinchilik.
2. Jamoa birinchiligi.
3. Shaxsiy va jamoalar birinchiligi.
4. Ochiq gilam birinchiligi.
5. Mutloq birinchilik.

a) Shaxsiy birinchilik: har bir kurashchining olishuv natijalari o'zining shu musobaqadagi olgan o'rni aniqlash uchun o'tkaziladi. Musobaqa oxirida har bir vazn toifasida g'olib va sovrindorlar aniqlanadi;

- b) jamoalar birinchiligida: har bir jamoaning olgan o'rni aniqlanadi;
- v) shaxsiy va jamoalar birinchiligida har bir qatnashchining olgan o'rni va shunga qarab har bir jamoaning oigan o'rni aniqlanadi;
- g) ochiq gilam birinchiligida: har bir kurashchi o'zining sport klassifikatsiyasi, ustoni va mahoratini oshirish uchun kurashadi;
- d) mutloq birinchilikda: har qanday kurashchi vazn toifasidan qat'iy nazar (bosh hakam ruxsati bilan), qatnashish huquqiga ega;

III. Hajkantiar hay'ati

1. Har bir musobaqani o'lkazishdan oldin shu musobaqani o'z hududida tashkil qilayotgan davlat musobaqadan hizmat qiladigan hakamlar ro'yxatini musobaqa miqiyosiga qarab kurash fedcrasiyasiga laqdim qiladi va bu federatsiyalar tomonidaii tasdiqlangan hakamlar ana shu musobaqada hizmat qilishga haqlidirlar. Iar bir halqaro lurni, qit'alar chempionati va birinchiligi, Jahon chempionat iva birinchiligi, Olimpiya o'yinlari dasturiga kurash musobaqalarida faqalgma Kurash Halqaro Assosiasiyasi tomonidan tasdiqlangan va maxsus snrtifikatga ega bolgan hakamlar faoliyat ko'rsatadi.

2. Hakamlar hay'atini tarkibi:

- a) Bosh hakam;
- b) bosh hakam yordamchilari, ularning soni, musobaqalar o'tkaziladigan gilamlar sonidan bir kishiga ko'p boiishi lozim;
- v) bosh kotib va gilamlar kotiblari;
- g) gilamdagi hakamlar va yon hakamlar;
- d) vaqtni nazorat qiluvchi hakam;
- ye) tablodagi hakam;
- yo) c'lon qiluvchi hakam;
- j) musobaqa komendanti;
- z) musobaqaning tibbiy hodimi (shifokor).

IV. Cilamdagi hakamlar.

1) Musobaqa vaqtida hakamlar kurash gilamiga chiqqan vaqtlarida, o'Vtadagi hakam o'ng qoMini ko'ksiga qo'yishi bilan chetdagi ikkala hakam ham qolini ko'ksiga qo'yib, barobariga lomoshobinlarga va Bosh hakamga qarab ta'zim qiladi Ian

2) hakamlar harakati, Bosh hakam va hakamlar hay'ati tomonidan nazorat. qilib boriladi. Agarda ular musobaqa qoidalariga zid xatti-harakat qilsalar, hakamlik hujjatidan mahrum qilinib. ushbu musobaqadan chetlashtiriladi va legishli tashkilotga yuboriladi.

V. Bosh hakam.

Bosh hakam musobaqaning, kurash qoidalariga asosan tashkiJ qilinishi va o'tkazilishga mas'ul shaxsdir. Bosh hakam ko'rsatmalarini kurashchilar, guruh boshJIqlari, murabbiylar, hakamlar va barciia qatnashchilar bajarishlari shart.

1. bosh hakam vazifalari:

- a) musobaqa o'tkaziladigan joy (Sport zali yoki stadion), anjomlar va gilamlarning tayyorlanishi tckshiradi;

- b) qur'a tashiash jarayonida kuchli kurashchilarni ikki guruhga bo'ladi; v) hakamlarni gilamlarga taqsimlaydi;
- g) musobaqa jadvalini tuzadi;
- d) kurashchilarni tarozida tortish uchun hakamlarni belgilaydi;
- ye) har bir olishuv uchun hakamlarni tayinlaydi va ularning harakatlarini nazorat qilib boradi;
- yo) musobaqa boshlanishidan oldin hakamlar hay'atining majlisini o'tkazadi;
- j) musobaqa davomida har kuni musobaqalardan so'ng hakamlar hay'ati, murabbiylar, jamoalar vakillari bilan birgalikda shu kuni musobaqaning natijalarini va hisobotini ko'rib chiqadi, kamchilik va nuqsonlarni o'z huquqi va imkoniyati doirasida bartaraf qiladi;
- z) agar zaruriyat bo'lib qolsa, hakamlar hay'ati majlisini har qanday vaqtda o'tkazishi mumkin;
- i) hakamlarning musobaqaga tayyorgarligini va musobaqa jarayonini baholab boradi;
- y) musobaqadan keyin uning qay darajada taslikil qilinganligi va o'tkazilganligi haqida yozma hisobot bayonini tayyorlab, tegishli tashkilotga topshiradi.

2. Bosh hakam huquqlari:

- a) Musobaqa o'tkazish inshooti, anjomlari va gilamlar tayyorlanmagan bo'lsa, musobaqa o'tkazishni ta'qiqlash va boshqa muddatga ko'chirishni mumkin;
 - b) musobaqa jarayonida, uni yuqori saviyada o'tkazishga halaqil beradigan hoi yuzaga kelib qolsa, musobaqani vaqtincha to'xtatib turish ham mumkin;
 - v) musobaqa o'tkazish tartibi yoki jadvaligi o'zgartirish kiritishi mumkin;
 - g) hakamlar hay'atiga ma'ium qilingan holda, kurash musobaqaiari qoidasini qo'poi ravishda buzgan yoki qoidaga nova qiimagan hakamni musobaqadan chetlatishi mumkin;
 - d) musobaqada ishtirok etishga ro'xsati bo'linagan yoki kurash qidalarini buzgan kurashchilarni ham musobaqadan chetlatishi mumkin;
 - ye) qo'pollik qilgani yoki kurash qoidalarini buzganliklari uchun liar qanday guruh vakillari va murabbiylarini ogohlantirishi yoki musobaqadan chetlatishi mumkin;
- Eslatma: Bosh hakam kurash qoidasini bekor qilishi yoki o'zgartirishlar kiritishi mumkin emas.

VI. Bosh hakam o'rinbosari

- a) Bosh hakam musobaqada vaqtincha bo'lmagan paytda uning ru'xsati bilan bergan vakolatiga asosan uning vazifalarini bajaradi;
- b) olishuv natijasi va keyingi olishuvga tayyorlanib turuvchilarni e'lon qilib boradi;
- v) o'rtadagi hakamlarni, kotibni, vaqtni nazorat qiliuvchi hakamni, tablodagi hakarani nazorat qilib boradi va almashtiradi.

VII. Bosh kotib va kotiblar.

- 1. Bosh kotib musobaqa qatnashchilari mandat komissiyasidan utayotgan vaqtda kurashchilarning xujjatlarini tekshirib boradi.

2. Bosh kotib, hakamlar hay'atini majlisini, musobaqa va olishuv bayonnomalarini, kurasliish tartibini va boshqa hujjatlarni yozib boradi.

3. Kotiblar o'z gilamidagi bayonnomalarini yozib boradilar.

4. Kotiblar olishuv baliolaiini ogohlantirishlarini nazorat qog'oziga yozib boradilar.

5. Bosh kotib Bosh hakam bilan birga musobaqaning hisobot bayonnomasini to'ldirib, unga imzo qo'yib topshirishga mas'ul shaxsdir.

VIII. O'rtadagi hakam.

1. Olishuv boshlanishidan oldin gilamga chiqqan kurashchilarning gigiyenik holati, kurash formasining qoida talablariga javob berishini tekshiradi, agarda kurash qoidasi talabiga javob bermasa, qayta kiyinib (ro'xsat qilingan vaqt ichida) chiqishni talab qiladi.

2. Olishuvning qanday borishini va olishuv davomida kurash qoidalariga qat'iy rioya qilinishini ko'zatiib boradi.

3. Olishuv davomida yon tomonlarida o'tirgan hakamlarning baholarini ham kuzatib boradi.

4. Kurashchi tomonidan qo'Mlanilgan har bir usulni baholashda kurashni («TO'XTA» buyrug' bilan) to'xtatib, 2-3 skimd ichida tegishli bahoni berib, «KURASH» deb qaytadan olishuvni boshlash kerak.

5. Olishuv davomida qoida buzganlik uchun beriladigan ogohlantirishlarni qilish uchun o'rtadagi hakam bellashuvni («TO'XTA» buyrug' bilan) to'xtatib, 8-10 sekunnd vaqt ichida tegishli ogohlantirishni berib (bu vaqt ichida kuraslichilar kiyimlarini tartibga solib o'z joylarida turishlari lozim), «KURASH» deb qaytadan olishuvni boshlash kerak,

6. Vaqtni kuzatib boruvchi hakamning bildirishi bilan o'rtadagi hakam belgilangan olishuv vaqti tugaganligini «VAQT» iborasini aytib, ishorasini qo'l bilan ko'rsatib, olishuvni to'xtatishi kerak.

IX. Yon tomondagi hakamlar.

1. Yon tomondagi hakamlar o'rtadagi hakamga yordam beradilar, kurashchilarning hamma harakatlarini baholab boradilar.

2. Kurashchilar harakatini baholashda gilamdagi uchta hakamdaii ko'pchilik fikri bilan isii yuritiladi. Agar fikrlar har xil bo'lsa, bir fikrga kelishish uchun raaslaxallashib olishlari kerak.

3. Yon tomondagi hakamlar bir-biriga qarama-qarshl tomonlardagi kursilarda o'tirishadi, olishuv davomida zurrat tug'ilib qolsa, yon tomondagi hakam olishuvni tik turib ko'zatiish ham mumkin.

4. Agar kurashchilarning biriga yoki ikkalasiga ham qisqa fursatga giiamdan chiqish zarur bo'lib qolsa, yon tomondagi hakamlardan biri hamkoiilik qilishi /arur.

X- Vaqtni ko'zatuuvchi hakam.

1. Vaqtni kuzazuvchi hakam kurashchilar olishuvga chaqirilgandan keyin gilamga qancha vaqt mobaynida keladilar, agar uzrsiz kechikib kelsalar bu haqida darrov hakamni ogohlantirish kerak,

2. Olishuv vaqtini liar bir daqiqasini nazorat qiiib hisoblab boradi. Agar olishuv davomida kurashchi tibbiy yordam olsa yoki boshqa sabablar bilan olishuv to'xtatilsa hammasini hisoblab Bosh hakamni habardor qilishi shart.

3. Kurashchi 1 minutda gilamga chiqmasa «Tanbch», 2 minutda «Dakki» 5 3 minutda «G'irrom» ogohlantirilishi beriladi.

XI. Tablodagi hakam.

a) Tablodagi hakam e'lon qilgan har bir bahoni yoki ogohlantirishlarni tabloda ko'rsatib boradi;

b) agar o'rtadagi hakam e'lon qilgan natiжалarni kurolmay yoki eshitolmay qolsa, gilam boshqaruvchi hakamdan aniqlab oladi;

v) tabloda aks ettirilgan baholar gilamda kurashchilardan birining g'olib chiqqanligini e'lon qilguncha turishi shart.

XII. E'lon qiluvchi hakam

1. Musobaqaning kun tartibini, qaysi vazn toifasida, kimlar o'rtasida olishuv bo'lishini, qaysi kurashchilar olishuvga tayyorlanib turishini e'lon qilib boradi.

Gilamga har bir kurashchi haqida ma'lumot berib boradi. Gilamni boshqarayotgan hakam va g'iiandagi hakamlar haqida ham tomoshobiniarga ma'lumot berib boradi.

2. Olishuv natijalarini e'lon qiluvchi hakam toranidan e'lon qilingandan so'ng hakamlar qarori qal'iy hisoblanadi va qayta muhokama qilinadi.

3. Musobaqa va kurashga taaluqli bo'lmagan e'lonlar faqat Bosh hakam yoki uning o'rinbosarlari ro'xsati bilan beriladi.

XIII. Musobaqa komendanti.

Musobaqa o'tadigan sport zali, stadion yoki maydon, kurash tushadigan gilam (tatami), hakamlar uchun stol-stui, zang (gong) va boshqa anjomlarning tayyorgarligiga mas'til shaxsdir;

- Musobaqaning tinch o'tishiga ham javobgar shaxs;
- Musobaqa komendanti bosh hakam topshirig'iga binoan ish olib boradi.

XIV. Musobaqa shifokori

Musobaqalar boshlanishidan oldin kurashchilar sog'ligi haqidagi hujjatni, qo'yilgan imzo va muhirlarni tekshirib chiqadi, agar kamchilik bo'lsa o'sha kurashchiga olishuvga chiqishga ro'xsat berilmaydi.

- Kurashchilar vazinlari o'lehanayotgan vaqtda ularni kuzdan kechtrib boradi;
- Musobaqa o'tadigan inshootini va kurash gilamlarini hamda kurashchilar formalarining tozaiigini nazorat qiladi;
- Musobaqa davomida olinganjihozlarni davolab boradi;
- Kurashchi jarohat olib, 3 minut davomida gilamga chiqmasa, shifokorning ruxsat bilan musobaqadan chetlashtirilib, g'alaba raqibiga beriladi.

XV. Kurash qoidasidan tashqari favqulotda vaziyatlar

Agar kurash qoidasida ko'rsatilraagan vaziyat ro'y bersa, u holda gilamdagi hakamni gilam chetidagi hakamlar bilan raaslahatlashadi. Bunda ham bir qarorga kelinmasa, bu vaziyat Bosh hakam va hakamlar hay'ati bilan maslaliatlashib yechilishi lozira.

XVI. Hakamlar formasi (kiyini)

Hakamlar formasi - qora kostyum va shim, qora paypoq, oq ko'ylak va qora galstuk.

XVII. Kurash formasi (kiyimi)

1. Kurashchilar ko'k yoki yashil yaktak, qizil belbog' va oq rangli ishton kiyishlari shart va bu holda birinchi chiqarilgan qatnaslichi ko'k yaktakni kiyadi, ikkinchisi esa yashilni kiyadi. Ranglarning raqamlari: Ko'k - 5-zm; yashil — 4-kx.

2. Kurash formasi paxtadan tayyorlangan bo'lishi, yaxshi holatda bo'lishi, mato o'ta qattiq bo'lmasligi shart.

3. Qo'yidagicha belgilash ruxsat beriladi;

- davlat gerbi (chap ko'krakda, maksimal ulchami 10x10 sm);

- ishlab chiqaruvchining savdo belgisi (3x3 sm, yaktakning oldi pastki qismida);

- yelkadagi belgi (25 sm dan ko'p bo'lmagan, 5 sm eniga);

- tikishlar (25x25 sm, orqa tarafda ruxsat beriladi, sportchining familyasini joylashtirish mumkin).

4. Yaktakning uzunligi lizzadan 10-15 sm balanda bo'lishi kerak. Yaktak ustidan bel atrofida ikki marta o'ralib bog'langan belbog'ning tugundan uchigacha bo'lgan qismi 20 sm dan kam bo'lmasligi yaktak yenglari uzunligi ko'pi bilan qo'l tirsigidan 20-25 sm pastda bo'lishi, qo'l va yeng orasi 5 sm bo'lishi, ishton uzunligi oyoq to'pig'igacha bo'lishi, oyoq va ishton orasidagi bo'shliq butun uzunligi bo'yicha 10-15 sm, belbog' 4-5 sm eniga, rangi qizil bo'lishi kerak.

5. Kurashchi ayoliar yaktak ichidan oq rangli, mahkam futbolka yoki kalta yengli yoqasiz ko'ylak kiyishi kerak.

6. Agar kurashchining kiyimi (yaktak va ishton) talabga javob bermasa, hakam kurashchidan uni almashtirishni talab qilishi shart. Kurashchi quliarni oldinga uzatib, hakamni yaktak yenglari belgilangan qoidalarga mos ekanligiga ishontirishi shart.

7. Har ikkala jinsdagi kurashchilar ham yalang'och kurasliadilar. Agar kuta bo'lmagan ob-havo bo'lsa, bosh hakam ro'xsati bilan oyog'iga yengil oyoq kiyimi kiyishi mumkin.

XVIII. Kurashchilar gigiyenasi

Kurashchining kiyimi (yaktak va ishton) toza quriq, yoqimsiz hid bo'lmasligi, qo'l va oyoq tarmoqlari kalta olingan bo'lishi, uzun sochlar boshqa kurashchiga halaqit bermaydigan qilib yig'ishtirib olinishi kerak. Gigiyena qoidalarini bajarmagan liar qaysi kurashchi musobaqalarda qatnashish huquqidan mahrum boiadi.

XIX. Kurash gilatni.

1. Kurash gilamining minimal o'lchami 10x10 m, 12x12 m, 14x14 m bo'lishi, maksimal ulchami 16x16 m. Kurash gilari odatda qizil, yashil, kuks oq va och yashil ranglardan iborat material bilan qoplanishi shart.

2. Kurash gilami ikkita maydonga bo'linadi. Bu maydonlarni ajratib turadigan chiziq «hafli chiziq» deyiladi, u har doim qizil rangda va eniga 1 metr bo'ladi.

3. Xafli chiziq ichidagi maydon «hafsiz maydon» deyiladi, uning minimal o'lchamlari 8x8 m, maksimal o'lchamlari esa 10x10,

4. Xafli chiziq tashqarisidagi maydon «xafli maydon» deyiladi va eniga 3 m bo'ladi.

Kurashchilarning yoshi va vazn toifalari

Bolalar 4 - 7 yosh 8, 9, 10, 11, 12, 13, 15, 17, 19, +19 kg

Bolalar 8-11 yosh 20, 21, 23, 25,27, 30, 33, +33 kg
Bolalar 12 - 13 yosh 33, 36, 40, 44,48, 52, 56, 60, 65, 70, +70 kg
O'smirlar 14 - 15 yosh 38, 42, 46, 50, 55, 60, 65, 71, 77, 83, +83 kg
Yoshlar 16-17 yosh 42, 46, 50, 55, 60, 65, 71, 77, 83, 90, +90 kg
Katta yoshdagilar 18 - 35 yosh 60, 66, 73, 81, 90, 100, +100 kg
36 - 45, 46 - 55, 56 - 60, 61 - 65, yo shva undan katta yoshdagilar 60, 65, 70, 75,80, 85, 90, 95, +95 kg.

Mustaxkamlash uchun savoliar.

1. Musobaqalar qanday vaziiiairni hal etishga yordam bcradi?
2. Kurash musobaqalari o'zining o'tkazilishi xususiyatiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?
3. Kurash musobaqalarining o'tkazilish usullariga ko'ra qanday turlari mavjud?
4. Sport musobaqalarining o'tkazilishini lartibiga soiuvchl asosiy hujjatlarai ay lib, ularga tavsif bering.
5. Sport musobaqalarining kaiendar rcjasi mazmuni va ushbu hujjatning ahamiyatini yoritib bering.
6. Musobaqalarning har xil turlarini sanab bering va tavsiflang.
7. Musobaqa nizomining asosiy bulimlarini ayting va ularni mohiyatini tushuntiring bering,
8. Hakamlar hay' ati tarkibini aytib bering.
9. Musobaqalarni o'tkazishda hakamlarning asosiy rnajburiyatlarini bayon qiling.

Topshiriq

1. Bosh hakam faoliyatini o'rganish.
2. Musobaqa turlari va o'tkazish qonun qoidalarini tahlil qilish.
3. Musobaqa nizommi tuzish.
4. Kurash gilami oMchamlari va ranglarini o'rganish.
5. Kurashchilar formasi (kiyimi) o'lchamtarini va ranglari.
6. Kurashchilarning yosh va vazn toifalarini o'rganish.

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. K. Yusupov. Kurash halqaro qoidalari texnikasi va taktikasi. Toshkent 2005.
2. N.X. Azizov. Belbog'li turkiston kurashi. Toshkent: O'qituvchi 1998.
3. A. Atoyev. Yosh o'smirlar o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyati. Toshkent «O'qituvchi» 2005.
4. F.A. Kerimov. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. Toshkent 2005.
5. R.S. Salomov. "Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari" O'zbekiston Davlat jismoniy madaniyat instituti Toshkent 2005 yil. 238-bet

6. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy madaniyat instituti 2005 yil - 171 b.
7. Uchebnoye posobiye pod.red. A.N.Borodiyev, I.B.Goldshteyn, N.B.Samoylov. Russkiy rukopashnyy boy. Moskva 2001
8. Praktika rukopashnogo boya. Uchebnoye posobiya pod/red. K.Borisov 2003 g.
9. Djiu djiu S.Ivanov – Katanskiy. Moskva 1996 g.
10. Karate – do Donesk S.A.Lapshin. Moskva 1991 g.
11. Posobiye po zashite i obezorujivaniyu pri udarax nojom. Ilxamov I.R. Toshkent 1998
12. Metodicheskoye rukovodstvo dlya purvogo goda obucheniya. 1998 g.
13. Nastavleniye po fizicheskoy podgotovke Voorujyonnyx Sil Ruspubliki Uzbekistana. Toshkent 1999.
14. A.Abduvattorov, A.A.Istomin Dzyudo kurashi Toshkent 1993

Milliy kurash va qo'l jangi sportida elementar texnik harakatlar

Reja:

1. Kurashchining holatlari
2. Kurashda taqiqlangan ushlar va harakatlar
3. O'z-o'zini ximoyalash va muvozanatdan chiqarish
4. Ushlar,oraliq masofalar

Kurash — sport yakka kurashining ma'lum bir tiiri bo'lib, raqib ustidan qozonadigan g'alaba, ma'lum bir harakatlar va usulJar qamrovi yordamida anialga oshiriladi.

Kurashda barcha usullar 7 nom bilan aytiladi va bajariladi: supurma, chil, qo'shina, yuk (ywklama), yelka, bardor, yonbosh. Bular esa bir neclia yuzlab usullarga boiinadi,

Kurash texnikasi (usullarini) to'la - to'kis tushunish, uni liar qanday holatda ham bajara olish, ya'ni to'liq egallash uchun, Lining usuliari, ikki kurashchining olishuvi, usullarning qanday holatda bajarilishi haqida oldin tushunchaga ega bo'lishi kerak.

Kurashchilar olishuvga chiqqan vaqtlarida, gilamning chekkasidan bir-birlariga yuzlangan holda tiJca furadilar, ta'zimdan so'ng hakamning ruxsati bilan belgilangan qoida asosida kurashadiiar. Ular har mashg'ulot davrida ham murabbiylari «chordana» komandasini (buyrug'ini) berishlari bilan bir qatorda chiroyli tizilib, oyoqlarini bir-biri bilan chalishtirib, chap oyoqni o'ng oyoq prqasiga o'tkazib, qo'llarini tizzalarga qo'yib, chordona qurib o'tirishlari shart.

Kurashda ruxsat etilgan usuilar orqali, raqib yoki sherik tayanch muvozanatidan chiqariladi, usul bajarilib raqib ustidan g'alaba qozoniladi.

Inson salomatligiga zarar yetkazmaydigan, shikastlantirmaydigan va chiroyji usullar gurnhlarga bo'Jinadi va alohida o'rganiladi. Usullar asosan qo'ilar, oyoqjar va tosJar yordamida tik turgan holda bajariladi.

Bu degani usulJar shunday ketma-ketlikda o'rganiladi degani emas, bmlki ular murabbiy-pedagog yordamida oson elementlardan sekin-asta qiyin elementlarni o'rganish prinsipi asosida o'zlashtiriladi,

Mashg'ulotlar uch ko'rinishga bo'linadi; usulni ko'rib o'rganish, o'quv bellashuvi, usulni bajara olish uchun erkin olishuv.

Kurashda usulni bajarishga kirishgan kurashchi - kurashchining sherigi esa raqib deb ataladi.

Kurashchi boiishni orzu qilgan har bir yosh jismoniy sifatlariga alohida e'tibor berishi lozim. Har xil umumiy mashqiar va maxsus mashqlarni miintazam o'rganib, bajara borish orqali jismoniy tayyorgarlik yaxshilana boradi.

Umumiy jismoniy mashqlardan maxsus jismoniy mashqlarning farqini, uning maqsad va vazifalarini o'rganib bilish kerak.

Kurashchining umumiy jisir.oni}' tayyorgariigi a'io darajada bo'lmog'i kerak, Umumiy jismoniy tayyorgarlikni rilojlantirish haqida juda ko'p adabiyotlar mavjudligi tufaylt biz bu haqda ko'p to'xlaJmoqlii emasmiz.

Kurashchi ko'proq akrobatika va gimnastika bilan shug'ullanmog'i darkor, chunk! epchiliik va eigiluvchanlik qobilyati kuchayadi.

Shtanga bilan shug'ulianib kuchni oshiradL Kross chopish, vclosed haydash, eshkak eshish, suzish vositalari orqali esa chidamlilikni oshirib boradi. Sport uyinlari harakatii o'yinlar orqali va niq harakat qilish qobiliyati faoliashadi. Kurashchining har bir jismoniy sifatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Masai an, epciiiiik uchun juda tez harakatlanish kerak, tezlik esa ma'lum miqdorda kuchilikni talab qiladi. Chidamlilik uchun esa hamma jismoniy sifatlarrivojlangan bo'lishi lozim. Kurashchi qachonki o'zida hamma jismoniy sitatлами barobar rivojlantirsa, o'shandagina u yuqori natijalarga erisha oladi. Kurash uchun zarur bo'lgan mashqlarga to'xtalib utksak: Egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar orqali harakat amplitudasi (razmax) oshiriladi.

Egiluvchanlikni doimo rivojlantirib borisli uchun liar bir masliqni 16-18 marta bajarish va mashqni bajara boshlaganda sekinroq5 keyin esa tezashtirish kerak, Bunday vaqtda chuziluvchi mushaklaming ta'sirlanishiga e'tibor qilish, ammo mushaklami og'riydigan darajada qiynamaslik maslahat beriiadi.

Og'irlik markazidan chiqib (yiqilib) ketmaslik uchun qo'yidagi mashqlar tavsiya etiladi:

1. Bir oyoqda tikka turib ikkinchi oyoqni oldinga, yon tomonga, orqaga tomonga ko'tarish.

2. Oyoqlarni juft qiJib tikka turgan holda gavda bilan oldinga, chap va o'ng tomonga, orqaga egilish va tosni qimirlatmasdan gavdani aylantirisii.

3. Oyoqlarni juft qilib tikka turgan holda tos bilan aylantirish (har tomonga).

4. Shu harakatni bir oyoqda turib bajarish.

5. Bir oyoqda turib gavdani aylantirish.

6. Yuqoriga 90, 180, 360 darajaga gavdani aylantirib sakrab og'irlik markazidan chiqib ketmaslik.

Epchillikni oshiruvchi mashqlar har xildir: tizza va qo'llarga tayanib turgan sherik ustidan oldinga sakrab umbaloq oshish, xuddi shu hoiatda turgan sherik ustidan yumalab sakrash. Yon tomonga aylanish, bosh va qo'llarga tayanib yelkarni gilamga tekkizmasdan oldinga va orqaga umbaloq oshish.

Kuchni oshirishi uchun gantel, gir, shtangadan foydalanib va bularsiz ham har xil maxsus mashqlar bajarish mumkin.

Shtangani kukrakka qo'yib yuqoriga sckin ko'tarish, siltab va dast ko'tarish.

Yelkaga shtangani qo'yib oldinga engashish va shu hoiatda o'tirib-turish. Og'ir girlarni ko'tarish, sekin yurish. Sherikni yelkaga mindirib yurish yoki yugurish.

Maxsus sport anjomlari bilan mashqlar bajarish,

Maxsus sport anjomini ikki qo'l bilan tortib oldinga yoki yon tomondan supunna usulini bajarish.

Maxsus sport anjomlari bilan elkadan oshirib uloqtiruvchi usullami bajarish.

Raqib gilanida har xil holatda yotganda (uni qarshiligisiz) uni gilamdan belgacha yoki ko'krakkacha ko'tarib olish.

Raqibni har xil hoiatda ko'tarib }urish, yelkaga mindirib o'Urib-turish yoki gavdani oldinga engashtirish.

Kurashchi o'zining bu jismoniy sifatini oshirish uchun qo'yidagilarni hisobga oiish kerak:

1. Vazn belgilangan normadan oshib ketmasligi, tex harakat uchun kuchli, chaqqon bo'lishi, tezkoriikni rivojlantiruvchi mashqlarni oz-oz, lekin tez-tez bajarib turish lozim.

2. Ucha og'ir bo'lmagan rczlna ko'ptokni bir-biriga oshirish va havoda ilib olish.

3. Havoda uchib kelayotgani (yerga tushayotgan) yoki dumaJab kelayotgan ko'ptokni oyoq bilan to'xtatish va liar xil tomonga yo'naltirish.

4. Qisqa masoaga tez chopish.

5. Yugurib kelib va to'xtagan joyidan balandJikka va uzunlikka sakrash. '

6. Har hil xolatdan start olish.

7. Oldinga enkayib bosh va qoilariga tayangan holda bo'yin mushaklarini rivojlantiruvchi mashqlar bajarish, xudi shu mashqlarni orqaga qayishib bosh va qo'llariga tayanib bajarish

8. Turnika osilib torttlish.

9. Arqonga har xil usullar yordamida tirmashib chiqib-tushish.

10. Turnik yoki daraxtga kurash yaktagini ilib qo'yib, o'qasiga osilib tortilish, bu qo'l va barmoq mushaklarini kuchli qiladi.

11. Uzoq masofaga (3-5 km) yugurish,

12. Arqon tortishish.

Kurashda taqiqlangan (mumkin bo'lmagan) ushlar va harakatlar.

1. Kurashda hych qachon belbog'dan pastdan ushlanmaydi, ya'ni oyog'idan, ishtonidan.

2. Kurashda raqib kallasiga yoki bo'ynidan ikala qo'l bilan ushlanmaydi yoki siqilmaydi.

3. Kurashda hych qachon raqib yengidan va yoqasini ichkariga burib yoki bosh barmoqni yengini yoki yoqaiii ichiga solib burib ushlanmaydi,

4. Kurashda usul o'rganayotgan vaqtda yoki musobaqa vaqtda bellashuv jarayonida raqibning yuziga, ko'kragiga tirsak yoki tizzi bilan yiqilish man etiladi.

5. Olishuv vaqtda raqibning boshiga yaktakni o'rash taqiqlanadi.

6. Kurashda bo'g'isli va Gg'ritish usullarini qo'llash taqiqlanadi.

7. Raqib tizzalab qolgan vaqtda, ya'ni bir yoki ikki tizasi gilamga tegib turgan bo'lsa olishuv to'xtatiladi.

8. Raqibni barmoqlaridan ushlar ham taqiqlanadi.

9. Olishuv davomida raqib bilan gaplashish mumkin emas. Bunga zaruriyat tug'ilib qolsa gilamdagi hakamdan ruhsat so'raladi. Kurashchi gilamda harakatlanyotganda yakka yoki sherik bilan oldinga, orqaga, yon tomonga harakallanadi, ammo har qanday harakatlanish vaqtda ham oyoqni gilamdaii uzmasdan iJoji boricha oyoqlar gilamda ishonch bilan erkin yursa yaxshi, aks holda xujum qilib usul bajarish uchun riqibga quiay imkoniyat yaratiladi.

O'z-o'zini himoyalash. Kurashchi gilamda yiqilgan paytda o'z-o'zlni himoyalash. hych qanday shikast yetkazmay yiqilishi muhim ahamiyatga ega.

Har blr kurashchi har qanday holatda to'g'ri yiqila bilishi va yiqila turib o'zini hamda raqiblnl har hil usullar orqali himoya qila olishi shart, agar himoyalash va himoyalashnx bilmasa usullarni o'rganish vaqtda o'ziga yoki raqibiga shikast

yetkazish mumkin. Bularni osondan qiyinrog'iga qarab mashqlar davomida o'rganilib, takomillashtirib boriladi.

Shu o'rinda kurashchi yiqilgan paytda, u tezkorlik bilan o'midan turib., Yana jangovor hoiatda turishini birinchi mashg'ulotdanoq o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashlash, uloqtirish usuli bajarilganda havfsiz yiqilish himoyasidagi kurashsiga ham, xujumdagi kurashsiga ham muhim hisoblanadi. Yiqilish texnikasini yaxshi takomillashtirmagan kurashchining harakatiari qo'rquv aralash ehtiyotkorona bo'lib, lining yutuk kurashchi bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

Kurashchi birinchi navbatda o'zini, raqibini ham umumiy Og'irlik markazini va kurashchi qanday holatda bo'lmasin, lining tayanch maydoni nuqtasini aniq bilishi shart.

Kurashchining yiqilish yo'nalishlari qo'yida beriladi. A) orqaga; b) yon tomonga, v) oldinga. Yiqilishning har bir yo'nalishi puxta o'rganib chiqilishi shart. Yuqori toifadagi tajribali kurashchilar ham har bir mashg'ulotda, yiqilish texnikasiga doir mashqlarni ma'lum vaqt davomida takrorlab turishi shart. Bu mashqlar organizmni qizitish, o'zida ishonchni oshirish uchun katta ahamiyatga ega.

Kurashchi gilamda yiqilayotgan paytda, gavdasidan oidin uning qo'liga gilmaga urilishi va gavdaga yetadigan zarbani ancha yengillashtirishi shart. Qo'lining gilamga urilgandagi zarbasi qancha tekis bo'lsa, gavdaga tegadigan zarba shuncha yengil bo'ladi.

Orqaga yiqilishi. Oyoqlar va gavda egilgan holda orqaga yiqilish. Bunday paytda bir ikki kichik qadam orqaga qillnib, shu vaqtni o'zida oyoqlar egiadi. Bu mashq tez bajarilganda, orqaga umbaloq oshib o'tirgan holatda muvozanat saqlanib oyoqqa turiladi. Orqaga yiqilishda koi qanday holatda bo'lishini o'rganish: gilamga orqa bilan yotiladi. Juftlanib yig'ilib olinadi, iyak ko'krakka siqib olinadi. Qo'llarni yuqori ko'tarib gilamga uriladi. Qo'llar gilamga urilish paytida oldinga cho'zilgan, qo'lining kafti esa pastga qaratilgan, barinoqlar jipslashtirilgan bo'ladi. Gavda va qoi orqasidagi burchak 45-50 darajani tashkil qiladi.

Yon tomonga yiqilish. Kurash yon tomonga yiqilishi tez-tez takrorlanib turadi, shu sababdan bu harakatlarga e'tiborni kuchaytirish lozim. Tikka turgan holda, bir oyoqni oldinga qo'yib, tayanch oyoqni tizzadan egib. qoi bilan gilamga urgan holda yon tomonga yiqilishda qo'l gilamga gavdadan oldinroq urilishi shart.

Mustaxkamlash uchun savollar.

1. Kurash texnikasi yagona lasnifining asosiy vazifalarini aytib bering.
2. Kurash texnikasi tasnifining to'rtta darajasini tushuntirib bering.
3. Kurash usullarini ta'riflash uchun nimani bilish lozim?
4. Kurash usullarining to'liq nomlarini ta'riflashning asosiy qoidalarini sanab o'ting.

Topshiriq

1. Kurashchilarning asosiy xolatlarini o'rganish;
2. Kurashchilarning texnik xarakatini o'rganish;
3. Kurashchilarning taklik harakatlarini o'rganish;
4. Aldamchi harakatlar va hujum taktikasini tuzish;

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. K.Yusupov. Kurash halqaro qoidalari texnikasi va taktikasi. Toshkent 2005.
- 2.N.X.Azizov. Belbog'li turkiston kurashi. Toshkent: O'qituvchi 1998.
- 3.A.Atoyev. Yosh o'smirlar o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyati. Toshkent «O'qituvchi» 2005.
4. F.A.Kerimov. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. Toshkent 2005.
- 5.R.S. Salomov. "Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari" O'zbekiston Davlat jismoniy madaniyat instituti Toshkent 2005 yil.238-bet
- 6.Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy madaniyat instituti 2005 yil - 171 b.
- 7.Uchebnoye posobiye pod.red. A.N.Borodiyev, I.B.Goldshteyn, N.B.Samoylov. Russkiy rukopashnyy boy. Moskva 2001
- 8.Praktika rukopashnogo boya. Uchebnoye posobiya pod/red. K.Borisov 2003 g.
- 9.Djiu djisu S.Ivanov – Katanskiy. Moskva 1996 g.
- 10.Karate – do Donesk S.A.Lapshin. Moskva 1991 g.
- 11.Posobiye po zashite i obezorujivaniyu pri udarax nojom. Ilxamov I.R. Toshkent 1998
- 12.Metodicheskoye rukovodstvo dlya purvogo goda obucheniya. 1998 g.
- 13.Nastavleniye po fizicheskoy podgotovke Voorujyonnyx Sil Ruspubliki Uzbekistana. Toshkent 1999.
- 14.A.Abdusattorov, A.A.Istomin Dzyudo kurashi Toshkent 1993